

Maktab bitiruvchilarining institutimizga tashrifi

Yunusobod tumanidagi 150-maktab bitiruvchilari 22 - yanvar kuni TIQXMMIga tashrif buyurdilar. "Geodeziya va geoinformatika" kafedrasidan mazkur maktabga g.f.n., dotsent O.Ro'zqulova biriktirilgan. U o'quvchilarga Marketing bo'limidan olingan bukletlar yordamida mavjud ta'lif yo'nalishlari haqida batafsil ma'lumotlar berdi. Bitiruvchilar institut bosh binosidagi maket yordamida institutdagi mavjud fakultetlar va ular faoliyati, bakalavriat ta'lif yo'nalishlari hamda institut bilan yaqindan tanishdilar. ARMda bo'lib, kitoblardan foydalanish jarayoni, elektron kutubxonadan foydalanish bo'yicha tushunchalarga ega bo'ldilar. So'ngra, institutdagi mavjud bo'limlar faoliyati va o'quv laboratoriyalari bilan tanishtirilib, zamonaviy sohalardan bo'lgan "Davlat kadastrlari", "Geodeziya va geoinformatika" yo'nalishlarida ta'lif olish jarayoni yaqindan tanishtirildi. Kadastr sohasida respublikada yetakchi olim i.f.n., dotsent Q.Rahmonov hozirgi kunda bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar bilan tanishtirdi.



Sohada yetuk kadrlarga bo'lgan ehtiyoj har bir turar joy misolida tushuntirildi. "Geodeziya va geoinformatika" sohasini iqtisodiyot tarmoqlaridagi ahamiyati, Xalqaro loyihalarini zamonaviy kadrlar taylorlashdagi o'rni (Tempus, Niropa, DisNGIS) institutni doktoranti A.Xamraliev tomonidan tanishtirildi. O'quvchilar institut bitiruvchilari qaysi sohalarda ishlashlari, o'qishga kirish uchun qaysi fanlarni kuchaytirib o'qishlari; institutdagi fakultetlar, kafedralar hamda o'quv laboratoriylarida va xalqaro aloqalar bo'limida qanday ishlar amalga oshirilishi haqida savollariga javoblar oldilar. Maktab bilan hamkorlik davom ettiriladi. O'quvchilarga institut saytiga kirib, o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob olishlari yuzasidan stajyor o'qituvchi N.Mirjalolov tomonidan batafsil tushunchalar berildi. O'quvchilar boy taassurotlar bilan qaytdilar.

TIQXMMI matbuot xizmati